



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

BADIIY TARJIMADA FUNKSIONAL EKVIVALENTLIK MUAMMOSI (FORMAL VA FUNKSIONAL YONDASHUVLAR)

Subxonova Madina Otabekovna

Buxoro davlat pedagogika instituti, o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada tarjimashunoslik nazariyasida muhim o'rin tutuvchi funksional ekvivalentlik tushunchasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Unda formal va funksional yondashuvlar o'rtasidagi konseptual farqlar ochib beriladi hamda E. Nida, P. Newmark, V.N. Komissarov va M. Baker qarashlari asosida funksional ekvivalentlikning mazmuni, mezonlari va tarjima jarayonidagi o'rni yoritiladi. Tadqiqotda funksional ekvivalentlikning diniy diskurs tarjimasidagi ahamiyati alohida ta'kidlanib, uning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: funksional ekvivalentlik, formal ekvivalentlik, tarjima nazariyasi, pragmatika, diniy diskurs, kommunikativ funksiya, tarjima strategiyalari, madaniy moslashuv.

ПРОБЛЕМА ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ (ФОРМАЛЬНЫЙ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ ПОДХОДЫ)

Субхонова Мадина Отабековна

Бухарский государственный педагогический институт, преподаватель

Аннотация

В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется понятие функциональной эквивалентности, занимающее важное место в теории перевода. Раскрываются концептуальные различия между формальным и функциональным подходами, а также на основе взглядов Eugene Nida, Peter Newmark, Viktor Komissarov и Mona Baker освещаются сущность, критерии и роль функциональной эквивалентности в процессе перевода. В исследовании особо подчёркивается значение функциональной эквивалентности в переводе религиозного дискурса и обосновываются её коммуникативно-прагматические особенности.

Ключевые слова: функциональная эквивалентность, формальная эквивалентность, теория перевода, прагматика, религиозный дискурс, коммуникативная функция, переводческие стратегии, культурная адаптация.

THE PROBLEM OF FUNCTIONAL EQUIVALENCE IN LITERARY TRANSLATION (FORMAL AND FUNCTIONAL APPROACHES)

Subkhonova Madina Otabekovna

Bukhara State Pedagogical Institute, Lecturer

Abstract

This article provides a theoretical analysis of the concept of functional equivalence, which occupies an important place in translation studies. It reveals the conceptual differences between formal and functional approaches and, drawing on the views of Eugene Nida, Peter Newmark, Viktor Komissarov, and Mona Baker, examines the essence, criteria, and role of

functional equivalence in the translation process. The study particularly emphasizes the significance of functional equivalence in the translation of religious discourse and substantiates its communicative and pragmatic features.

Keywords: functional equivalence, formal equivalence, translation theory, pragmatics, religious discourse, communicative function, translation strategies, cultural adaptation.

Zamonaviy tarjimashunoslikda tarjimani faqat lingvistik birliklarning mexanik almashtirilishi sifatida emas, balki kommunikativ, madaniy va pragmatik jarayon sifatida talqin qilish tendensiyasi ustunlik qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tarjima sifatini baholash mezonlari ham o'zgargan: endilikda asosiy e'tibor shakliiy moslikdan ko'ra mazmuniiy, funksional va pragmatik moslikka qaratilmoqda. Aynan shu jarayonda "funksional ekvivalentlik" tushunchasi tarjima nazariyasining markaziy kategoriyalaridan biriga aylanadi.

Funksional ekvivalentlik konsepsiyasi tarjimada matn birliklarining formal tuzilishini emas, balki ularning kommunikativ vazifasi, ta'sir kuchi va pragmatik funksiyasini saqlashga yo'naltirilgan yondashuv sifatida namoyon bo'ladi. Bu ayniqsa diniy diskurs tarjimasida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki diniy birliklar ko'pincha leksik emas, balki madaniy, axloqiy va emotsional funksiya bajaradi.

Formal va funksional yondashuvlar mohiyati

Formal yondashuv tarjimada asliyat matnining: grammatik tuzilmasi, sintaktik modeli, leksik birliklari maksimal darajada saqlanishini maqsad qiladi. Bu yondashuvda tarjima til tizimi darajasidagi ekvivalentlik asosida baholanadi.

Formal yondashuvning struktural moslik ustuvorligi, so'zma-so'zlikka yaqinlik, semantik izchillik, minimal interpretatsiya kabi asosiy xususiyatlari mavjud.

Struktural moslik ustuvorligi tarjimada asliyat matnining grammatik va sintaktik qurilishini imkon qadar saqlashni nazarda tutadi. Bunda gap tuzilishi, so'z tartibi, morfologik shakllar hamda sintaktik bog'lanishlar tarjima tilida o'xshash model asosida qayta tiklanadi. Struktural moslik ustuvor bo'lgan holatda tarjimon matnni erkin qayta qurishdan tiyiladi va asliyat strukturasini "model" sifatida qabul qiladi. Natijada tarjima matni lingvistik jihatdan asliyatga yaqin bo'ladi, biroq ba'zan qabul qiluvchi tilning tabiiy nutq me'yorlaridan biroz chekinishi mumkin.

So'zma-so'zlikka yaqinlik yondashuvda leksik birliklarni imkon qadar bevosita ekvivalentlar orqali berish tamoyili ustuvor hisoblanadi. Tarjimon har bir so'z yoki iboraga lug'aviy mos birlik topishga harakat qiladi va keng interpretatsiyaga yo'l qo'ymaydi. Bu usul terminologik aniqlikni ta'minlashda samarali bo'lsa-da, ko'p ma'nolilik, metaforik ifoda yoki madaniy konnotatsiya mavjud bo'lgan holatlarda ma'no torayishiga olib kelishi mumkin. Shunga qaramay, ilmiy, rasmiy va diniy matnlarda mazkur yondashuv aniqlik va izchillikni saqlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Semantik izchillik tarjimada ma'no barqarorligini ta'minlashga intiladi. Bir xil leksik birlik yoki termin matn davomida bir xil tarzda tarjima qilinadi, sinonimik almashtirishlarga kam murojaat etiladi. Bu tamoyil ayniqsa konseptual yoki terminologik aniqlik talab qilinadigan matnlarda muhimdir. Semantik izchillik matnning mantiqiy yaxlitligini saqlaydi va tushunchalar tizimining buzilishiga yo'l qo'ymaydi. Biroq badiiy matnda bu xususiyat stilistik rang-baranglikni kamaytirishi mumkin. [1]

Minimal interpretatsiya tarjimonning subyektiv aralashuvini cheklashni ko'zda tutadi. Tarjimon matnga qo'shimcha izoh, kengaytirish yoki qisqartirish kiritmaydi, yashirin ma'nolarni ochishga yoki konnotativ qatlamni keng talqin qilishga intilmaydi. Maqsad — asliyat mazmunini imkon qadar bevosita va neytral shaklda yetkazishdir. Bu tamoyil matnning obyektivligini saqlashga xizmat qiladi, biroq ayrim hollarda pragmatik yoki madaniy ma'noning to'liq ochilmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, formal yondashuvning ushbu xususiyatlari tarjimada shakliy aniqlik va lingvistik moslikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u kommunikativ ta'sirdan ko'ra strukturaviy va semantik barqarorlikni ustuvor deb biladi.

Biroq bu yondashuvning cheklangan tomoni shundaki, u kommunikativ va pragmatik ta'sirni yetarli darajada hisobga olmaydi. Natijada tarjima semantik jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, o'quvchiga ta'sir darajasi pasayishi mumkin.

Funksional yondashuv esa tarjimada asosiy e'tiborni kommunikativ maqsadga, pragmatik ta'sirga, o'quvchi qabuliga, madaniy moslikka qaratadi. Bu yondashuvda tarjimaning vazifasi — asliyat matnining o'quvchiga ko'rsatgan ta'sirini boshqa til va madaniyat muhitida qayta yaratishdir.

Funksional yondashuvning asosiy tamoyillari tarjimada shakliy moslikdan ko'ra kommunikativ natijani ustuvor deb bilishga asoslanadi. Quyida ushbu tamoyillarning mohiyati batafsil yoritiladi:

Kommunikativ adekvatlik tarjimaning asosiy vazifasi — asliyat matnining kommunikativ maqsadini saqlashdan iborat ekanini ta'kidlaydi. Agar matn o'quvchini ishontirish, ta'sirlantirish, ogohlantirish yoki tarbiyalash maqsadida yozilgan bo'lsa, tarjima ham ayni funktsiyani bajarishi lozim. Bunda grammatik yoki leksik o'xshashlik ikkinchi darajali hisoblanadi. Asosiy mezon — tarjima matnining qabul qiluvchi auditoriyada qanday reaksiya uyg'otishi.

Pragmatik moslik tarjimada kontekst, nutq vaziyati, muallif pozitsiyasi va auditoriya xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Pragmatik moslik deganda matnning yashirin ma'nolari, implikaturalari, presuppozitsiyalari va madaniy ishoralarini yangi til muhitida qayta yaratish tushuniladi. Bu ayniqsa diniy, madaniy yoki ramziy birliklar tarjimasida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular ko'pincha bevosita emas, balki kontekst orqali anglashiladi.

Madaniy adaptatsiya madaniy tafovutlarni inobatga oladi. Agar asliyatdagi birlik qabul qiluvchi madaniyat uchun begona bo'lsa, tarjimon uni izohlash, analog topish yoki moslashtirish orqali tushunarli qiladi. Bunda maqsad — o'quvchida asliyatga yaqin emotsional va semantik tasavvur hosil qilishdir. Madaniy adaptatsiya formal moslikdan chekinishni talab qilishi mumkin, biroq u funksional natijani ta'minlaydi.

Ta'sir ekvivalentligi (reader response equivalence) tamoyili asliyat o'quvchisida yuzaga kelgan emotsional va intellektual ta'sirni tarjima o'quvchisida ham uyg'otishga qaratilgan. Masalan, diniy birlik asliyatda muqaddaslik, hurmat yoki qo'rquv hissinini uyg'otsa, tarjimada ham shunga yaqin hissiy effekt yaratilishi zarur. Demak, asosiy mezon — reaksiya o'xshashligi. [2]

Kontekstual qayta qurish zarur hollarda gap tuzilmasini o'zgartirish, leksik almashtirish yoki sintaktik qayta qurish orqali matnni tabiiylashtirishni ma'qullaydi. Bu jarayonda tarjimon matnni yangi til tizimining normalariga moslashtiradi. Natijada tarjima sun'iy yoki so'zma-so'z emas, balki tabiiy nutq shaklida namoyon bo'ladi.

Shu bois funksional yondashuv zamonaviy tarjimashunoslikda ustuvor metodologiya sifatida qaraladi, chunki u tarjimani lingvistik operatsiya emas, balki kommunikativ va madaniy jarayon sifatida talqin qiladi. Ayniqsa diniy diskurs tarjimasida ushbu tamoyillar matnning axloqiy, emotsional va ramziy funksiyasini saqlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Eugene Nida tarjima nazariyasida dinamik (keyinchalik funksional) ekvivalentlik tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan olimlardan biridir. Uning yondashuviga ko'ra, tarjimada asosiy mezon "asliyat matnining o'quvchiga bergan ta'siri tarjima matni o'quvchisida ham imkon qadar bir xil bo'lishi kerak". Uning fikriga ko'ra formal ekvivalentlik shaklga yo'naltirilgan, funksional ekvivalentlik esa qabul qiluvchi auditoriyaga yo'naltirilgan bo'ladi. Diniy matnlar tarjimasida Nida aynan funksional yondashuvni ustuvor deb biladi, chunki diniy birliklar ko'pincha ramziy, emotsional va axloqiy funktsiya bajaradi. [3]

Peter Newmark tarjimani kommunikativ tarjima va semantik tarjima turlariga ajratadi.

- Semantik tarjima → formal yondashuvga yaqin
- Kommunikativ tarjima → funksional yondashuvga yaqin

Newmark nazariyasiga ko'ra, kommunikativ tarjimaning maqsadi — matnning kommunikativ effektini saqlashdir. U diniy, madaniy va ijtimoiy kontekstga ega birliklar tarjimasida funksional moslashuvni zarur deb hisoblaydi. [4]

V.N.Komissarov tarjimada ekvivalentlikni ko'p darajali tizim sifatida talqin qiladi va formal, semantik hamda pragmatik darajalarni keltirib o'tadi. Kommunikativ daraja eng yuqori bosqich — pragmatik va kommunikativ ekvivalentlik bo'lib, aynan shu daraja tarjimaning haqiqiy sifati mezon hisoblanadi. Komissarov nazariyasida funksional ekvivalentlik o'quvchi reaksiyasi, ta'sir kuchi, kommunikativ vazifa bilan belgilanadi. [5]

Mona Baker tarjimani diskurs va kontekst asosida talqin qiladi. U ham ekvivalentlikni darajalash orqali tavsiflaydi va ushbu tasnif so'z, ibora, grammatik, matn, pragmatik kabi darajalardan tashkil topadi. Baker uchun asosiy mezon pragmatik moslik bo'lib, u kontekst, presuppozitsiya (oldindan faraz qilingan bilim) va implikatura (yashirin xulosa) tushunchalari orqali izohlanadi. Funksional ekvivalentlik Baker nazariyasida kontekstual moslik, madaniy interpretatsiya, o'quvchi modeli bilan belgilanadi. [6]

Diniy diskurs tarjimasida funksional ekvivalentlik ayniqsa muhim, chunki diniy birliklar axloqiy pozitsiya shakllantish, emotsional ta'sir ko'rsatish, madaniy identifikatsiya vazifalarini bajaradi.

Shuning uchun tarjimada diniy birliklarni faqat leksik emas, balki pragmatik-funksional birlik sifatida talqin qilish zarur.

Masalan: taqdir → fate (formal moslik)

taqdir → God's will (funksional moslik)

Ikkinchi variant pragmatik va diniy funksiyani saqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, funksional ekvivalentlik zamonaviy tarjimashunoslikning markaziy nazariy kategoriyalaridan biri bo'lib, u tarjimani kommunikativ va pragmatik jarayon sifatida talqin qilishga asoslanadi. Nida, Newmark, Komissarov va Baker qarashlari turlicha bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi jihat tarjimada o'quvchiga ta'sirni asosiy mezon sifatida baholashdir. [7]

Diniy diskurs tarjimasida esa funksional ekvivalentlik madaniy moslashuv, axloqiy ta'sir, emotsional rezonans orqali namoyon bo'ladi. Shu bois funksional yondashuv diniy diskurs tarjimasining nazariy va amaliy asosini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sharipov R. Badiiy tarjima. – Toshkent: TDSU, 2024. – 120 b.
2. Nord C. Translating as a Purposeful Activity: Functionalist Approaches Explained. – Manchester: St. Jerome Publishing, 1997.
3. Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: Brill, 1982.
4. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988.
5. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – Москва: Высшая школа, 1990.
6. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – 3rd ed. – London: Routledge, 2018.
7. Otabekovna S. M. Metaphoric Expressions in Different Religious Texts // Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solution. – England, 2023. – Vol. 10, № 1.
8. Subkhonova M. The Concept of Religious Discourse and Aspects of its Study in Linguistics // Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education. – 2024. – Vol. 2, № 5. – P. 493–496.